

VLADIMIR NABOKOVNING “QIROL, DAMA, VALET” ROMANIDA ADYULTER MOTIVINING YORITILISHI

Pulatova Sabina Sharifovna,

BuxDU, II bosqich tayanch doktoranti

Email: sarvarsharifsabina@gmail.com,

Telefon raqami: +9980933381

Annotatsiya: Vladimir Nabokovning “Qirol, dama, valet” romani muallifning Yevropadagi muhojirlik davridagi eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda romanning adyulter (zino) motivi, qahramonlarning psixologik portretlari va Nabokovning badiiy uslubi tahlil qilingan. Asarda an’anaviy adyulter syujeti yangicha talqin etilgan bo‘lib, u orqali insoniyatning ichki kurashi, shaxsiy maqsadlari va jamiyatdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Romanning semiotik, psixologik va struktural tahlillari orqali Nabokovning qahramonlarni tasvirlashdagi mohirligi va ularning rivojlanishidagi ko‘z ilg‘amas xususiyatlar o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Qirol, dama, valet” romani Nabokovning keyingi asarlariga asos bo‘lib, uning badiiy uslubini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan.

Kalit so‘zlar: adyulter motivi, badiiy uslub, qahramonlarning psixologik portretlari, semiotik tahlil, struktural tahlil, muhojirlik davri, postmodern adabiyot, intertekstual belgilar.

KIRISH.

Yevropadagi muhojirlik yillarining so‘nggi 20 yilligi (1920-1940) Vladimir Nabokov ijodidagi eng sarmahsul palla sanaladi, chunki adabiy faoliyatining hech qaysi bir davrida u bunchalik “ko‘p va xo‘p” ijod qilmagan. Rus tilida yozilgan jami sakkizta romani ayni shu yillarda yozilib nashr qilingan va ular “Yevropa guruhi” deb tasniflanadi. Ular qatoriga “Mashenka” (1926), “Qirol, dama, valet” (1928), “Umidsizlik” (“Отчаяние”, 1932), “Камера обскупа” (1932) va “Qatl qilishga taklifnoma” (“Приглашения на казнь”, 1938) kabi romanlari kiradi. Agar uning ilk romani “Mashenka” Nabokovni Berlinda istiqomat qilivchi rus muhojirlarining hayotini tasvirlovchi adib sifatida keng kitobxonlar ommasiga tanitgan bo‘lsa, “Qirol, dama, valet”da yoritilgan adyulter mavzusi, barcha qahramonlarning nemis millatiga mansubligi, adabiyotshunoslar tomonidan Nabokovning rus tilida yozilgan barcha asarlari ichida eng “ruslarga xos bo‘lmagan” yohud “ruslar hayotini tasvirlamagan” roman sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ham mazkur roman muhojir yozuvchilar orasida muayyan darajada hafsalani pir qilgan, chunki ular Nabokovni “muhojirlikda rus hayotini tasvirlovchi” ijodkor sifatida qabul qilgan edilar. Lekin shunga qaramay, ular “Qirol, dama, valet” ni “iste’dodli yosh yozuvchining o‘z yo‘lini topish yo‘lidagi

urinishidir” degan qarashlarni ham ilgari surishadi[14, 43-44]. 20-yillarning oxiriga kelib, Nabokov rus adabiyotida shaklning eng nozik va mohir ustalaridan biriga aylanadi. Zamondosh adabiy tanqidchilar uning uslubini turli jihatlar bilan ta’riflashgan. Yu. Ayxenvald – “xiralikdan xoli bo’lgan yorqin va ravon” (“сплошь блестящим нигде не матовым”) deb maqtagan bo’lsa, G. Xoxlov – “o’tkir” va “kinoga xos aniq tasvirga ega” (“зорким” и “кинематографичным”) deb yuqori baholaydi. V. Xodasevich esa Nabokov uslubini “silliq” va “haqoniy ravishda mohirona” (“скользящим” и “подлинно искусным”) deb tavsiflasa, G. Adamovich “virtuoz va qamashtiruvchi, klassik yorqinlik bilan ajralib turadigan” (“виртуозным” отмеченным “ослепительной, классической яркостью”) deya e’tirof etadi [6, 8-9].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, mazkur tadqiqotda quyidagi masalalarni yoritishga urindik:

- “Qirol, dama, valet” romanida adyulter mavzusi qanday yangicha uslubda taqdim etilganligi va bu uslubning o’ziga xos xususiyatlari;
- Asardan olingan misollar va qahramonlarning harakatlari orqali Nabokovning badiiy uslubi qanday shakllanganligini tahlil qilish;
- “Qirol, dama, valet” romani Nabokovning keyingi ijodiga qanday ta’sir ko’rsatganligi tadqiq etish.

Tadqiqotning maqsadi Nabokovning ushbu romanidagi adyulter motivini, badiiy uslubini va uning keyingi asarlariga ta’sirini chuqur o’rganish orqali muallifning ijodiy evolyutsiyasini tushunishdir. Buning natijasida esa Nabokovning rus va jahon adabiyotidagi o’rni hamda uning badiiy uslubining o’ziga xos xususiyatlari aniqlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Tadqiqotning maqsadlaridan kelib chiqqan holda, semiotik, psixologik va struktural adabiy tahlil usullaridan foydalanildi. Natijada, “Qirol, dama, valet” romanida yoritilgan adyulter (zino) motivi ramziy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, qahramonlarning adyulterga nima sababdan yo’l qo’ygani hamda adyulter motivining syujetdagi o’rni va uning boshqa motivlar bilan bog’liqligi aniqlandi. Asosiy manbalar sifatida “Qirol, dama, valet” asarining asl matni, Nabokovning avtobiografik memuarlari “Speak, Memory” va “Другие берега” xizmat qildi. Qo’shimcha ravishda, B. Boydning “Vladimir Nabokov: Russian Years” va Jan Bloning “Nabokov” nomli kitoblari ikkilamchi manbalar sifatida o’rganildi.

Ikkinchi romanining g’oyasi Nabokovda 1927 yilning yoz faslida Pomeraniyadagi Ryugen orolida joylashgan Bins dam olish maskanida tug’iladi [6, 7]. “Qirol, dama, valet” (1928) romani ommaviy g’arbiy o’quvchi uchun mo’ljallangan o’yin xarakteriga ega badiiy asar sifatida talqin qilish zarurligini adibning o’zi “So’z boshi”da alohida ta’kidlaydi va shunday deydi: “Mening barcha romanlarim ichida bu “tulpor” eng quvnoqdir” (“из всех моих романов этот скакун - самый веселый”) [8, 102].

Asar 1928 yilning iyun oyida yozib tugatiladi va Berlindagi “Slovo” nashriyotida chop etiladi. O’sha yilning o’zida Nabokov romanni nemis tiliga tarjima qilish uchun “Ullstein” nashriyotidan buyurtma oladi va natijada “Qirol, dama, valet –taqdir o’yini” nomi ostida ilk marotaba muallifning o’zi tomonidan o’g’iriladi.[6. 8]

Romanda modellashtiruvchi matritsa sifatida detektiv syujetdan foydalaniladi, jinoyat esa o’zining estetik ma’nosida adabiy o’yin predmetiga aylanadi. Bu o’quvchining qiziqishini kuchaytiradi. Vatanin in tark etishga majbur bo’lgan rus yozuvchilari va shoirlarining ijodini o’rgangan adabiy tanqidchi M. Tsetlinning so’zlariga ko’ra, “roman uzluksiz va dahshatli e’tibor bilan o’qiladi” [14.143].

Buning sababi shundaki, bir qarashda Nabokov Lev Tolstoyning “Anna Karenina” va Gustav Flaubertning “Madam Bovari” kabi mumtoz asarlarda tasvirlangan adyulter mavzuni yoritgandek tuyuladi, biroq o’quvchi muallif asosiy syujet elementlarini yangicha yondashuvda aks ettirmoqchi ekanligini payqamaydi. Qahramonlar – er Drayer, xotini xushdori Frans va qotil rafika Marta – Nabokovning postmodern ruhdagi murakkab qiyofalarni yaratish mahoratini namoyon etadi. Drayerni cho’ktirish rejasi bir qarashda “burjua Makbet xonim”ni eslatgan bo’lsa-da, oxirida o’z dramatik tusini yo’qotadi. Drayerning boylik va texnologiyaga bo’lgan ishtiyoqi (robot-mannekenlar loyihasi) uni qutqaradi. Asarning yakiniy qismi Martaning tuzgan rejasi bo’yicha Drayerning fojeali o’limi bilan tugashini taxmin qilgan kitobxon qattiq adashadi, chunki Nabokov ular sira ham kutmagan kulgili finalni taqdim etadi. Marta o’tkir shamollash tufayli vafot etadi, Drayer qayg’uga botadi, Frans esa ozodlikni kulgu bilan qarshi oladi [12, 196-203].

J. Konolli ta’kidlaganidek, V.V. Nabokov “qotillik rejasini roman syujetining qurilishi bilan tenglashtiradi” [2, 599-618] va jinoyatni ijodiy aktga aylantiradi, bu jihat modernizmga xos bo’lsa, kitobxonlar bilan o’yin texnikasini qo’llashi postmodernizming o’ziga xos belgilaridan biridir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Romanning tematik asoslari, hikoya qilish texnikalari va qahramonlar rivojlanishini o’rganishda bir nechta muhim usullar mavjud bo’lib, ular Nabokovning o’ziga xos badiiy tasavvurini aks ettiradi.

Romanning alohida qimmat shundaki, unda hikoya qilish uslubi va o’quvchini jalb qilishning yangi vositalari sinab ko’riladi. Nabokov tanish syujet va shakllarni kutilmagan tarzda o’zgartirib, o’quvchini hodisalarning murakkab rivojiga jalb etadi. O’quvchi o’zini tanish muhitda his qilgan holda, bu muhitdagi o’zgarishlarni va dramatik burilishlarni qiziqish bilan kuzatadi. Bu yondashuv Nabokovning asarlarini boshqa adabiy oqimlardan ajratib turuvchi muhim jihatdir.

V.V. Nabokov reallikni tahlil qilishdan ko’ra, uni o’ziga xos yozuv usullari bilan yaratishga e’tibor qaratib, go’zallikni reallikdan izlaydi [13, 228]. Masalan, Frans boradigan shahar tasvirida muallif tasviriy yozuv texnikasidan foydalanadi va

impressionistik manzaraning badiiy “naqsh”larini yaratadi, bunda aniq konturlar yo‘q, ammo tasavvur uchun keng imkoniyat mavjud: “каждый фонарь, звездой расплывшийся во мраке, каждый румяный отблеск, каждое содрогание перемещавшихся, перекликавшихся огней, и черные фигуры, поверявшие друг дружке душные, сладкие тайны в углублениях подъездов, и чьи-то полураскрытые губы, скользнувшие мимо, и черный, влажный асфальт, - все приобретало значение, сочеталось в одно, получало имя...” [9, 45] V.V. Nabokov tasavvuridagi badiiy va dekorativ teatr dunyosi aynan shu tarzda jinoyat sahnasiga aylanadi.

Shunday qilib, “Qirol, dama, valet” romani Nabokovning ijodiy evolyutsiyasida muhim bosqich bo‘lib, uning keyingi asarlarini chuqur idrok etishga olib boruvchi yo‘lni ochib beradi va yozuvchilik mahoratining o‘ziga xos tajriba maydoniga aylanadi.

Romaning yuzaki ko‘rinadigan adyulter intriga motivi - oila buzilishiga olib keluvchi ishqiy xiyonat mistifikatsiya ya’ni o‘yin yoki aldovga aylanadi, bu o‘quvchini optik illyuziyaga - o‘quvchini chalg‘itish orqali voqealarni bir yoqlama, aniq va sodda deb o‘ylashga undab, romandagi chuqur ma’nolarni yashirib, ularni noaniqliklar va murakkabliklar dunyosiga olib kirish esa Nabokobga xos uslub sanaladi, chunki Nabokovning egri ko‘zgusi roman yo‘nalishining boshqa qirra qotillikni san’at darajasida tasvirlashni ham aks ettiradi. Romandagi intertekstual belgilar mashhur syujet va motivlarning turli atributlari orqali ifodalanadi, masalan, raqslar, Marta kasalligi, qahramonlarning tushlari, diniy obrazlar, maneken-avtomatlar va hokazo.

Romanning qahramonlari muallif tomonidan qo‘g‘irchoqlar, jonli his-tuyg‘ularga qodir bo‘lmagan avtomatlarga o‘xshatilgan komedik fars qahramonlari sifatida tasvirlangan. V.V. Nabokov qahramonlarini shafqatsiz teatrning o‘yin qahramonlari sifatida o‘ylab topgan bo‘lib, ular A.M. Zverev so‘zlariga ko‘ra, “сходятся, друг в друга перетекая, живое, но родственное автомату, и механическое, но притворившееся живым” [15, 786].

Nabokovning qahramoni Marta shafqatsizlikni o‘z ichki fantaziyalari orqali tasvirlaydi: “... она снова воображала, что по мере того, как блаженство близится, Драйер гибнет, что каждый торопливый удар ранит его еще глубже, и что наконец он слабеет, валится, растворяется в нестерпимом блеске ее счастья” [9, 236]. Shu tariqa, Marta erini “o‘ldirish” sahnasini tasavvur qiladi.

Fransning illyuziyalarga to‘la sun’iy hayoti azobli tushga o‘xshaydi: “мучительным сном, в котором есть и усилие неимоверное, и тошнота, и ватная слабость в икрах, и легкое головокружение...” [9, 125] - Qahramon xuddi bir sharpadek mavjud bo‘lib, o‘z irodasiga ega emas. Marta tomonidan o‘ylab topilgan Drayerni o‘ldirish rejasini hech qanday qarshiliksiz qabul qilarkan, Frans “damani irodasiga” tobe holda gipnozlangan tushda yashayotgandek tuyuladi: “Я все готов

сделать... Я на все готов. Я тоже думал... Я тоже...” [9, 216]

Frans va Martani o‘zaro sevgi emas, balki qimmatbaho, ammo foydasiz buyumlarga ega bo‘lish istagi bog‘laydi. Asardan olingan quyidagi parchalar bu fikrimizga yaqqol dalil bo‘ladi: “Значит, вила. Со светлым холлом. Ковры, картины, серебро. Так? И небольшой сад. Газон. Фруктовые деревья. Магнолии». Таким видят они свое «первоклассное счастье.”[9, 198] “Моя столовая, мой сервиз, мой Франс” [9, 191].

Adib Fransni ko‘p bora jonsiz mavjudotga qiyoslaydi: u “восковая фигура”- “mumdan yasalgan haykalcha”, “веселая кукла”- “quvnoq qo‘g‘irchoq” va “мертвая кукла”-“jonsiz qo‘g‘irchoq” sifatida tasvirlaydi. Natijada Frans inson qiyofasini butkul yo‘qotib, “tabiat qonuni” sifatida mexanik harakatlarga ega avtomatga aylanadi:“... автомат останавливался, чтобы через восемь часов опять прийти в действие” [9, 237]. Fransning tashqi ko‘rinishi ham deyarli insoniylikni yo‘qotib, mexaniklik xususiyatlariga ega bo‘la boradi, ayniqsa, qotillik rejasi amalga oshishiga yaqinlashgan sari: “скользящий, мутный блеск стоял в его зеленоватых глазах” [9, 214] misoli fikrimizga isbot bo‘la oladi.

Fransga o‘xshab Marta ham o‘yin figurasi yoki karta o‘yinidagi dama maqomiga ega. V.V. Nabokov Marta qiyofasini ham qo‘g‘irchoqqa o‘xshatadi. Uning boylik orttirishga bo‘lgan istaklari ham o‘zi kabi hissizdir. Qo‘g‘irchoq-avtomatga o‘xshagan Marta odamlarga emas, balki oddiy aql va qotillikni amalga oshirishning mantiqiy hisob-kitobiga ishonadi: “... ей казалось, что она действует так обдуманно, так рассудительно..., ее спасение - в простоте строгости, обычаичности; искомый способ должен быть совершенно естественным и чистым” [9, 235].

Marta qotillikka moddiy sabablarga ko‘ra intiladi, bu ham uning insoniylikni yo‘qotganidan dalolat beradi, bu dunyoda u o‘zini tirik qo‘g‘irchoq Frans bilan birga baxtiyor deb his qiladi va har bir boy xonimning o‘ynashi bo‘lishi kerakligini u farovon burjua hayotining zaruriy elementi sifatida qabul qiladi: “Просто - у меня любовник. Это должно украшать, а не усложнять жизнь” [9, 183].

Roman Nabokovning o‘z uslubini shakllantirish va tajriba o‘tkazish maydoniga aylanadi. Ayniqsa, erotik sahnalarning ta’sirchanligi va ta’riflash san’atidagi chuqurlik uning yozuvchilik mahoratini ko‘rsatadi. Bu uslub keyinchalik Nabokovning yirik asarlarida yanada rivojlanadi. Shu bilan birga, Martaning o‘ta ayyor obrazi Nabokov ijodida ayollarga nisbatan ichki adovat motivining ilk belgilari sifatida namoyon bo‘ladi.

Romanning alohida qimmat shundaki, unda hikoya qilish uslubi va o‘quvchini jalb qilishning yangi vositalari sinab ko‘riladi. Nabokov tanish syujet va shakllarni kutilmagan tarzda o‘zgartirib, o‘quvchini hodisalarning murakkab rivojiga jalb etadi. O‘quvchi o‘zini tanish muhitda his qilgan holda, bu muhitdagi o‘zgarishlarni va dramatik burilishlarni qiziqish bilan kuzatadi. Bu yondashuv Nabokovning asarlarini

boshqa adabiy oqimlardan ajratib turuvchi muhim jihatdir.

XULOSA.

Vladimir Nabokovning “Qirol, dama, valet” romani muallifning badiiy uslubi va adabiy tajribasining muhim bosqichi sifatida ajralib turadi. Mazkur asarda Nabokov adyulter (zino) motivini yangicha talqin qilib, uni an’anaviy syujetlardan farqli ravishda o’quvchiga taqdim etadi. Romanning asosiy qahramonlari – Drayer, Marta va Frans – insoniy his-tuyg’ular va shaxsiy maqsadlar o’rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi, ularning harakatlari va qarashlari orqali muallif insoniyatning ichki dunyosini chuqur tahlil qiladi. Nabokov bu an’anaviy mavzuni o’ziga xos uslubda qayta ishlab, uni faqat romantik drama emas, balki insoniyatning ichki kurashi va jamiyatdagi o’rni haqida chuqur fikr yuritish vositasi sifatida taqdim etadi. Asarda qo’llangan semiotik, psixologik va struktural tahlil usullari orqali Nabokovning qahramonlarni tasvirlashdagi mohirligi va ularning rivojlanishidagi nozikliklar ko’rsatildi. “Qirol, dama, valet” romani Nabokovning keyingi ijodida muhim rol o’ynadi, uning badiiy uslubi va mavzularini rivojlantirishda asosiy bosqich bo’ldi.

Shunday qilib, “Qirol, dama, valet” romani Nabokovning badiiy mahoratini namoyon etuvchi asar bo’lib, uning keyingi asarlarini tushunish va baholashda muhim rol o’ynaydi. Bu asar orqali Nabokov o’quvchini nafaqat sarguzashtlar dunyosiga, balki insoniyatning ichki kurashi va ma’naviy izlanishlari haqida chuqur fikr yuritishga undaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Blot, Jean. Nabokov. Russian Baltic Information Center Blitz, 2000.
2. Connolly, Julian. “Korol, Dama, Valet.” V. Nabokov: Pro et Contra, vol. 2, RKhGI, 2001, pp. 599–618.
3. Kurbanova, Nodira Rozikovna. “MARK TWAIN IS A PROMINENT REPRESENTATIVE OF AMERICAN REALISM.” Current Research Journal of Philological Sciences, vol. 3, no. 5, May 2022, pp. 64–68, doi:10.37547/philological-crjps-03-05-15.
4. Kurbanova, Nodira Rozikovna, and Makhfuza Mustafoeva. “ORIGIN AND FEATURES OF THE SONNET GENRE.” Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, vol. 11, 2023, pp. 141–147.
5. Kurbanova, Nodira Rozikovna. “The Description of Some Images in ‘Divine Comedy’ by Dante Alighieri.” International Journal on Integrated Education, vol. 3, no. 3, 2020, pp. 17–19, doi:10.31149/ijie.v3i3.79.
6. Nabokov, Vladimir. King, Queen, Knave. AST, 2023.
7. Nabokov, Vladimir. Speak, Memory: An Autobiography Revisited. Putnam, 1966.
8. Nabokov, Vladimir. Sobranie sochinenii amerikanskogo perioda [Collected Works of the American Period]. Vol. 1, Simpozium, 1997.

9. Nabokov, Vladimir. *Sobranie sochinenii* [Collected Works]. Vol. 3, Pravda, 1990.
10. Pulatova, Sabina Sharifovna. "MORAL ASPECTS IN VLADIMIR NABOKOV'S NOVEL 'ADA.'" *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, vol. 12, no. 5, 2023, pp. 63–65, <https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1760>.
11. Pulatova, Sabina Sharifovna. "Interpretation of Valuable Moral Concepts in the Novel of Somerset Maugham 'The Moon and Sixpence.'" *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 70–75.
12. Pulatova, Sabina Sharifovna. "Vladimir Nabokovning 'Qirol, dama, valet' asarida postmodernizm va burjua hayotining satirasi" [Postmodernism and Satire of Bourgeois Life in Vladimir Nabokov's *King, Queen, Knave*]. *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* [The Role of Digital Economy and Modern Education in Scientific Development], vol. 1, no. 2, Jan. 2025, pp. 196–203.
13. Quronov, D. *Adabiyotshunoslik lug'ati* [Dictionary of Literary Studies]. Akademnashr, 2013.
14. Tsetlin, M. O. "Retz: Korol, Dama, Valet." *Klassik bez retushi. Literaturnyi mir o tvorchestve Vladimira Nabokova* [Classic Without Retouching: The Literary World on Vladimir Nabokov's Work], edited by N. G. Melnikov, *Novoe literaturnoe obozrenie*, 2000, pp. 43–44.
15. Zverev, A. M. *Nabokov. Molodaia gvardiia*, 2001.